

OILAVIY NIZOLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY TASAVVURLAR KONSEPSIYASI

Usmonova Munira Sayfiddinovna, stajyor o'qituvchi
Xo'jamurodova Gulxayo Bahodir qizi, I bosqich talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

usmonovamunira1996@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy nizolarning kelib chiqishi va uni yuzaga keltiruvchi omillarga, oiladagi o'zaro munosabatlarda yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar, oilada ota ona va farzandlar munosabatida bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishi, oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi, oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlariga olib kelishi o'rganilayotganligiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tasavvurlar, bo'lajak oila, ijtimoiy institut, nizo, muvaffaqiyatli yondashuv, namoyon bo'lishi, muhofaza, intizom, maqsad, mojoro, turmush tarzi, adekvat tasavvur.

Oilada kamol topayotgan yosh avlod dunyoqarashining to'g'ri shakllanishi oila a'zolari o'rtasida barqaror bo'lgan sog'lom munosabatlarning xarakteriga bog'liq. Bu esa, bola ongida ijobiy va salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishiga zamin bo'ladi.

Ijtimoiy tasavvurlar doirasidagi oilaviy nizolar muammosining o'rganilishi jarayonida, asosan, er-xotin (ota-ona) o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki oila muhiti muvozanatini ota-ona saqlab turadi. Oila borasidagi ilmiy izlanishlardan yana shu narsa ma'lumki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin o'rtasidagi nizolardan tashkil topadi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya sohasida er-xotin o'rtasidagi nizolar, ularning kelib chiqishi va ushbu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar dunyoqarashi, fe'l-atvoriga ta'siri hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shu boisdan bu muammoni o'rganish uchun qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ularning natijalari keng kitobxonlar ommasiga havola etilgan.

Er-xotin munosabatlarining shakllanishi, o'zaro munosabatlar tizimida qanday namoyon bo'lishi, avvalo, oilada ayolning professional mavqei va ma'lumotlilik darajasiga bog'liqdir. Bu holat mavjud muammo yechimining bir tomoni hisoblanadi. Ma'lumki, oila doimo bolalar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat bo'g'inidir. Shu bois ham, oilaning katta va kichik a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoritilgan ayrim tadqiqotlar natijalarini nazariy jihatdan tahlil qilish ham bu o'rinda maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy oilalarning bosh vazifasi, bu - bola tarbiyasidir. Mohiyatan, mazkur jarayon oilani tashkil etuvchi shaxslarning o'zaro munosabatlari xarakteri bilan bog'liqdir. Xorijlik qator mutaxassislar, mazkur muammoni yoritish maqsadida, ijtimoiy mehnatdagi ayol bandligining bola tarbiyasiga ta'siri hamda oiladagi zamonaviy erkak mavqeini o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Tahlillar shundan dalolat beradiki, onasi ijtimoiy

mehnatda ishtirok etadigan qizlar faolroq, mustaqilroq, maqsadga intiluvchanroq bo'lib, uy bekalarining qizlariga nisbatan raqobatga intiluvchanroq va dadilroqdirlar. Ulardagi shaxs sifatleri feminin xislatlar shkalasi bo'yicha tekshirilganda, ayollik fenomenlari indeksi pastroq ekanligi hamda ijtimoiy hayotning turli vaziyatlariga ko'nikish darajasi osonroq ro'y berishi ma'lum bo'ldi. Shu ayol mavqeining o'g'liga ko'rsatadigan bevosita ta'siri o'rganilganda esa, uning o'ziga xos ekanligi, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan yangicha qarash ruhi mavjudligi kuzatilgan. Oilaviy munosabatlar jarayonida esa, an'anaviy ustanovkalardan chekinish aniqlangan.

Otaning bolalarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, zamonaviy erkakning bolalarida shaxs sifatlerini tarbiyalashdagi roli onalarnikidan past bo'lib chiqdi.

Hozir paytda muammolarni amaliy jihatdan bartaraf etish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, chexiyalik olim Stanislav Kratoxvil o'z qarashlarida, oiladagi kelishmovchilik-larning bosh sababi sifatida, intim munosabatlardagi buzilish va funksional patologiya hodisalarini ko'rsatib o'tgan. O'z tajribasi asosida bunday buzilishlarning oldini olish yo'lida, zamonaviy psixologiyaning ilg'or metodlaridan biri hisoblangan trening – o'rgatish yordamida oilaviy munosabatlarni me'yorida shakllantirishga harakat qilgan.

Ingliz faylasufi Frensis Bekon qarashlarida, ayrim psixologik omillar inobatga olinganligini ko'rish mumkin. U ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, siyosiy va psixologik shart-sharoitlarini sinchiklab o'rgangan holda, ularni bartaraf etish yo'llari to'g'risida o'z mulohazalarini bayon etgan. Xususan, u ijtimoiy tartibsizlik – nizoning asosiy psixologik omili sifatida “rahbarlarning tilidan chiqqan keskin va achchiq so'z”, “jamiyat hayotidagi ko'rolmaslik illati”, “jamiyatda odamlar o'rtasida tez-tez ko'tariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolg'on yoki bo'hton tashviqotlar” kabilarni alohida e'tirof etgan.

F. Bekon qarashlarida nizolarning oldini olish, uni bartaraf etishda siyosiy manyovr san'ati alohida xususiyat kasb etgan. U shunday yozgan: “Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga yetaklash norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda, ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni o'z vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero, shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariga ishonmasalarda, baribir, orzu-umidlar to'g'risida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar”.

Shuningdek, hududiy, milliy, diniy an'analarga asoslangan ota-onaning bola tarbiyasidagi ulushi masalasi ham bir qator tadqiqotlarning ob'ekti sifatida o'rganilgan. Chunki ma'lum davrlarda va turli millatlarda (Sharq, G'arb) o'z bolasini tarbiyalash uchun farzandini begonalarga uzoq muddatlarga topshirish an'analari mavjud bo'lgan. Masalan, turk va mongol xalqlaridagi “otaliqqa berish”, xristianlardagi monastirga berish kabi an'analar, ma'lum ma'noda bolani o'z oilasi muhitidan chetlashishni nazarda tutgan. Fikrimizcha, bu muhitda sun'iylik mavjud bo'lib, u bolaning hayotga va yaxshilikka oid qarashlari, o'zaro hamda ota-ona nizolari to'g'risidagi tasavvurlaridan ustun bo'lgan.

Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi ta'sirida, inson "o'z oilam", "o'z boshpanohim" tushunchalarini yanada qadrlab, farzand tarbiyasi xususidagi qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bois ham Jon Lokk o'zining mashhur "Tarbiya xususidagi ayrim fikrlar" nomli traktatida "...qullarcha intizom qullik xarakterini shakllantiradi", – deb yozgan edi.

So'nggi yillardagi qator ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar oilada tarbiyalanayotgan bolada insoniylik va qattiqqo'llik to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishini o'rganishga bag'ishlandi. Xususan, olimlar bo'linmagan (katta) va kambolali (kichik) oilalar muhitini bir-biriga solishtirib tahlil qilishgan. Masalan, Greyvzning aniqlashicha, katta oilada kichik bolaga g'amxo'rlik qiluvchilarning ko'pligi, ularda o'zaro hamkorlik malakalarini shakllanishiga olib kelib, o'zgalarga bog'liqlik, tobelik sifatlarini kuchaytiradi. Aksincha, kam farzandli oilada shaxslararo munosabatlar san'atini egallashda bola jiddiy qiyinchi-liklarga uchraydi.

Mavzuning muammosi nuqtai nazaridan xorijda va yurtimizda chop etilgan ilmiy asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nizo yoki ziddiyatlarning insoniy munosabatlar tizimida sodir bo'lishi tabiiy holat hisoblanib, ularni o'rganish jamiyat boshqaruvini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .

- 1.Davletshin M.G. Oilaviy nizolar psixologiyasi va ularni bartaraf etish yo'llari. // "O'zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – T.: 2000. – B. 11-13.
- 2.Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti. – T.: 1995. – 26s.
- 3.Djeynott X. Roditeli i deti.-M.: MP «Arbat», 1992. 95 st
- 4.Dadajonov M. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. – T.: "O'zbekiston", 1980. –B. 31.
- 5.Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси.Ўқув қўлланма. "Баёз" нашриёти. Тошкент.2022 й.
- 6.Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А.Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. "Баёз" нашриёти. Тошкент.2022 й.
- 7.Ибайдуллаева, У., & Абдурасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.
- 8.Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ 'БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*
- 9.Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLIHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6)

10. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
11. Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
12. Абдурасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES)*.